

QASHQADARYO VILOYATI BALANDLIK MINTAQALARINING TIZIMLI TAHLILI, TOG' BALANDLIK MINTAQASI (QASHQADARYO MISOLIDA)

Jo'rayeva Zebo Xolmirza qizi - Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining tog' balandlik mintaqalari tizimli o'rganilib, ularning geomorfologik, iqlimiy, gidrologik, tuproq, o'simlik va landshaft xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyat hududida uchraydigan balandlik mintaqalari — cho'l, adir, tog' va yaylov zonalar alohida ko'rib chiqilib, ayniqsa tog' mintaqasining tabiat komponentlaridagi vertikal zonallik qonuniyatlari chuqur yoritilgan. Shuningdek, tog' mintaqasida tuproq eroziyasi, suv oqimlari, daryo havzalari va o'simlik qoplami kabi tabiiy jarayonlarning xo'jalik faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada Qashqadaryo tog'lari — Hisor tizmasi, Chaqilkalon, Beshnov, Maydonak kabi yirik tizmalarda joylashgan balandlik zonalar asosida amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Tog' mintaqasi, balandlik mintaqalanishi, vertikal zonallik, geomorfologiya, iqlim, tuproq, landshaft, tog'-dasht, tog'-o'rmon, tabiiy resurslar, eroziya, daryo vodiylari.

СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЫСОТНЫХ ПОЯСОВ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ, ГОРНОГО ВЫСОТНОГО ПОЯСА (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИ)

Жураева Зебо Холмирза кызы- Каршинский государственный университет.

Узбекистан.

Аннотация. В данной статье систематически изучаются горные высотные районы Кашкадарьинской области, анализируются их геоморфологические, климатические, гидрологические, почвенные, растительные и ландшафтные особенности. Отдельно рассматриваются высотные пояса, встречающиеся на территории области — степные, холмистые, горные и пастбищные зоны, особенно подробно освещаются закономерности вертикальной зональности в природных компонентах горного региона. В данной статье систематически изучаются горные высотные районы Кашкадарьинской области, анализируются их геоморфологические, климатические, гидрологические, почвенные, растительные и ландшафтные особенности.

Ключевые слова. Горный регион, высотная поясность, вертикальная зональность, геоморфология, климат, почва, ландшафт, горно-степной, горно-лесной, природные ресурсы, эрозия, речные долины.

SYSTEMATIC ANALYSIS OF THE ALTITUDINAL REGIONS OF KASHKADARYO REGION, MOUNTAIN ALTITUDINAL REGION (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYO)

Juraeva Zebo Kholmirza qizi- student of Karshi State University. *Uzbekistan*.

Annotation. This article systematically studied the mountain altitude regions of the Kashkadarya region and analyzed their geomorphological, climatic, hydrological, soil, vegetation and landscape characteristics. The altitude regions found on the territory of the region — steppe, adir, mountain and Meadow zones-were considered separately, especially since the laws of vertical zoning in the nature components of the mountain region are deeply illuminated. This article systematically studied the mountain altitude regions of the Kashkadarya region and analyzed their geomorphological, climatic, hydrological, soil, vegetation and landscape characteristics. The altitude regions found on the territory of the region — steppe, adir, mountain and Meadow zones-were considered separately, especially since the laws of vertical zoning in the nature components of the mountain region are deeply illuminated. The influence of natural processes such as soil erosion, watercourses, river basins and vegetation cover on economic activity in the mountain region is also analyzed. The article provides practical information on the high-altitude zones of the Kashkadarya Mountains,

Keywords. Mountain range, elevation regionalization, vertical zonality, geomorphology, climate, soil, landscape, mountain steppe, mountain forest, natural resources, erosion, river valleys.

Kirish.

O'zbekiston tog'larida balandlik mintaqalanishi vujudga kelishida hududni o'simlik, tuproq va hayvonot olamining o'zi xos xususiyatlari muhim omil sanaladi. Tog'larda balandlik mintaqalanishi hosil bo'lishida barcha tabiiy omillar, namgarchilik, yog'in miqdori, havo bosimi ayniqsa tog' yonbag'ri ekspozitsiyasi kabilar muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hududida uchraydigan cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarining har biri o'ziga xos geologik shart - sharoitlariga ega. Hududning balandlik mintaqalanishi qonuniyati muhim azonal qonuniyat bo'lib, tog'larda geografik komponentlarning kenglik zonallikning almashinishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Biz quyida Qashqadaryo havzasidagi balandlik mintaqalanishini K.Z.Zokirov tavsiya etgan 4 tipli: cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalaridan tog' mintaqasining o'ziga xos iqlim, tuproq qoplami, o'simlik va

hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishamiz. Havzada shakllangan tog' balandlik mintaqasining tabiat komponentlari va landshaft xususiyatlari o'rganamiz.[8].

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati mamlakatimizdagi tog' hududlaridan biri bo'lib, viloyatning Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, G'uzor, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlaridagi ancha katta maydonlar tog' hududlariga mansub. Qashqadaryo viloyatida tog' hududlarining maydoni 12,8 ming km², shundan dengiz sathidan 800 m yuqorida joylashgan "sof" tog' hududlarining maydoni 7,6 ming km² yoki viloyat jami maydonining 26% ini tashkil etadi. Baland tog' landshaft tizimining maydoni 69 ming ga. ni tashkil etadi. Baland tog'li subalp va alp o'tloq dasht landshaftlari tizimi (yaylov) Qashqadaryo havzasi doirasida Hisor tizmasining markaziy qismlari va ularga yaqin joylashgan tog'larda, 2800-3000 m dan yuqorida tarqalgan. Mintaqa doirasida yonbag'irlari tik, relyefi kuchli parchalangan ochiq qoyalar va toshloqzorlar ko'p, bir-biridan chuqur daralari va vodiylari bilan ajralib turadigan Osmontarosh, Beshnov, Eshakmaydon, Xontaxti, Kurek va Maydanak tog'lari umumiy nom bilan Yakkabog' tog'lari (3500-3700 m) deb atiladi [11].

Tog' balandlik mintaqasi Zarafshon tizmasining g'arbiy tarmoqlari – Chaqilkalon, Qoratepa va Hisor tog'lariga mansub (1-rasm). Umumiy maydoni 546 ming ga. Bu mintaqa - viloyat hududining 1200 m dan (ayrim joylarda 1500 1600 m dan) 2700-3000 m gacha bo'lgan yerlarni o'z tarkibida birlashtiradi. Shuningdek tog'lar balandligiga qarab 3 ta turga bo'linadi: past tog'lar, o'rtacha baland tog'lar, baland tog'lar (1-jadval). Bu balandliklarda relyef juda murakkab bo'lib, tog' tizmalari orasida vodiylar shakllangan. Biz tog' mintaqasi balandlik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, uning o'ziga xosligini: geomorfologik, gidrologik, tuproq hosil bo'lish jarayonlari, o'simlik va hayvonot dunyosi tarkibining o'zgarishida tog' yonbag'irlarining ekspozitsiyasi, hukmron havo massalari va shamolning doimiy o'zgarishlarida ko'rishimiz mumkin [8].

Tog' turi	Balandligi (m)	Tavsifi
	200 m – 800/1000 m	Adirlar, tog'oldi tekisliklari,

Past tog'lar		relyefning yumshoq shakllari, eroziyaga nisbatan ochiq.
O'rtacha baland tog'lar	700/800 m – 2000 m	Relyef keskinlashadi, daryo vodiylari, soyliklar, cho'qqilar nisbatan aniq shakllanadi.
Baland tog'lar	2000 m dan yuqori	Tik qiyaliklar, cho'qqilar qor/muzlik bilan qoplangan, vertikal zonallik yaqqol namoyon.

1-jadval. Balandlik mintaqalarining turlari

Qashqadaryo viloyati tog' mintaqasi asosiy relyef shakllari Hisor, Chaqilkalon, Osmontarash, Beshnov, Shertog', Toytalash, Maydonak, Eshakmaydon, Xontaxta, Xo'ja Aqchaburun tog'larida aniq namoyon bo'lgan. Tog' mintaqasi relyefining tarkibiy qismlari - tog' zanjirlari, ularning ayrim tarmoqlari - tizmalar, ular orasidagi tektonik botiqlar, qadimiy denudatsion ko'tarilmalar va qirlardan tashkil etadi. Havzaning o'rtacha baland tog'lar mintaqasida o'rtacha nam tipik tusli bo'z tuproqli tog'-dasht zonasi, baland tog' mintaqasida esa nam och tusli qo'ng'ir tuproqli o'tloq dasht (alp va subalp o'tloqlari) zonalarini hosil bo'lgan. [1]



1-rasm. Qashqadaryo viloyati Hisor tog'lari manzarasi.

Qashqadaryo viloyatining 45,2 % (S.I. Abdullayev, I.Usmonov, 1981) hududi tog' va tog'oldi va 54,8 % tekislik mintaqasiga mansub (2 – jadval).

Balandlik mintaqalarining nomi	Dengiz sathidan balandligi (metr hisobida)	Yer maydoni, ming ga	Viloyatning umumiy yer maydoniga nisbatan % hisobida
Cho'l	250-500 (600)	1567	54,8
Adir	500 (600) - 1200-1600	675	23,6
Tog`	1200-1600 - 2700 2800	546	19,2
Yaylov	2800-3000 dan yuqori	69	2,4
Jami		2857	100,0

2- jadval. Qashqadaryo viloyati balandlik mintaqalari

Qashqadaryo viloyatining shimoli – sharqiy, sharqiy va janubiy – sharqiy qismini egallaydigan oʻrtacha baland togʻlarni dengiz sathidan 800 - 1200 m dan 2500-2800 m balandliklarni oz ichiga olib, yonbagʻirlari kuchli parchalangan, parchalanish chuqurligi 350 – 1000 m gacha yetadi. Yonbagʻirlarning qiyaligi 10 – 15oni tashkil etgani holda mintqa hududidagi daryolardan oqiziqlar oqimi (masalan; Yakkabogʻ daryo – Tatar kuzatish postidan olingan maʼlumotlarga koʻra) 73.5 ming tonna/yil, yuvilish moduli esa 145.8 tonna km²/ yil, yuvilish 0.097 mm/yil ni tashkil etgan (Xikmatov F.X., Yunusov Gʻ.X., va b. 2017). Agar Yakkabogʻ daryosining havzasi 504 km² ni tashkil etishini hisobga olsak yuvilish xavfini katta ekanligidan dalolat beradi. [11]

Iqlimi. Bu mintaqaning iqlimi oʻzining qulay tabiiy geografik sharoitiga ega. Iqlimi adirlar iqlimiga nisbatan salqin. Yanvar oyining oʻrtacha harorati (-1,7 0C – 4,6 0C) manfiy, iyul oyining oʻrtacha harorati 20 0C – 24 0C. Yogʻin miqdori 400 . 500 mm, gacha baʼzida 600 – 800 mm gacha, ayrim joylarda 1000 mm gacha yetadi. Yillik namlanish 0,5 – 0,7 dan oshmaydi.

Daryolari. Qashqadaryo viloyatida uzunligi 10 km dan 200 km gacha boʻlgan 120 dan ortiqroq katta – kichik daryolar boʻlib, asosiy daryolar togʻ mintaqasida tarkib topgan. Viloyatining suv resurslari 51,5m³/sek. dan iborat boʻlib, havzaning togʻli qismida oqim moduli har 1 km² maydondan 6,2 l/sek. ni tashkil etadi [6]. Qashqadaryo viloyati doirasida shakllanadigan yuza suvlari

asosan shu mintaqada shakllanadi va oqimi 0,7 km³ dan 1,2 km³ gacha o'zgaradi. Muvaqqat suv oqimlari xisobga olinganda bu ko'rsatkich 1,3 km³ ni tashkil etadi.

Tuproq qoplami. Tuproqlari to'q bo'z tuproqlar va erozion tektonik yuzalarda jigarrang tuproqlar keng tarqalgan. Tog' etaklarida bo'z tuproqlar, 1000–2000 metr balandlik oralig'idagi zonalarida qoramtir bo'z tuproqlar ustunlik qiladi. Tog'-o'rmon tuproqlari Hisor tizmasining namroq va shimoliy yonbag'irlarida uchraydi. Bunday tuproqlar 2000 metrdan yuqoriroq balandliklarda, o'rmon-dasht yoki archazorlar zonalarida shakllanadi. Tog'-chala cho'l va toshloq tuproqlar asosan quruq iqlimli janubiy tog' yonbag'irlarida (ayniqsa Bobotog' atrofida) bu turdagi tuproqlar ustunlik qiladi. Ular grunt jinslari ustida yupqa qatlamli, ko'proq toshli va o'ta kam unumdor hisoblanadi. [3]

O'simliklari va landshaft tiplari. Tog' mintaqasining o'simliklari 2 tipga: tog'-dasht va tog' o'rmonlari (daraxt-buta) o'simliklariga bo'linadi. Tog'-dasht o'simliklari asosan, tog' mintaqasining quyi qismlarida keng tarqalgan. Tog' o'rmonlari keng bargli o'rmonlar zonasi mutlaq Hisor tog'lari va uning atrofidagi past tog'lar uchun xosdir. Tog' mintaqasining kenglik va subkenglik yo'nalishiga ega bo'lgan tog' sistemalarida uzoqlik landshaftlarining tabaqalanishi sektorlikning ta'sirida yaqqol ifodalangan. Bunday holatda binsolyatsiya ham, sirkulyatsiya (shamol) ekspozitsiyasi muhim omil sanaladi. Demak, tog'larda balandlik zonalligi birinchi navbatda ularning qanday geografik mintaqada va sektor doirasida joylashganligiga va bevosita tog'larning mutlaq balandligiga bog'liqdir [8]. Landshaft xususiyatlariga ko'ra bu tog'larda a) o'rtacha quruq (semiarid) – tog' dasht, b) nam (gumid) to'g' o'rmon landshaftlari tiplari ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi (S.I.Abdullayev, 2001). Tog' dasht landshaftlari azaldan insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida bo'lganligidan, o'tmishda keng tarqalgan butali – daraxtli o'simliklar deyarli kesib nobud qilingan, ayrim joylardagina pista, arg'uvon, do'lana uchraydi, asosan o't o'simliklari hukmron bo'lib, ular yuzaning 60 -70 % ini qoplagan. Tog' o'rmon landshaftlari Chaqilkalon tog'larining yuqori qismlari, Qashqadaryo va Jinnidaryoning yuqori oqimlari oralig'ida, Katta va Kichik O'radaryo yuqori oqimlarini o'z ichiga oladi,

o'rmon – jigarrang tuproqlar xarakterli bo'lib ekspozitsiyalarga bog'liq holda siyrak archazorlar, siyrak o'rmonlar va butazorlarda yong'oq, olma, zirk, bodom, pista kabi daraxtlar, ko'p yillik o'simliklar mavjud.

Xo'jalikdagi ahamiyati. Bu mintaqaning tabiiy salohiyati juda yuqori bo'lib, bu yerlarda chorvachilik, urug'chilik, tamakichilik, dorivor o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish, tuproq eroziyasiga va sel hodisalariga qarshi o'rmon – meliorativ tadbirlarni mutassil olib borish lozim (3-jadval)

Mintaqa nomi	Mutlaq balandligi (m. da)	Relyefi	Harorati 0C da			O'rta-cha yillik yog'in (mm his .)	Tuproq qoplami	Asosiy o'simlik formatsiyalari	Xo'jaliklarda asosiy foydalanish yo'nalishlari
			o'rta-cha yillik	eng past	eng baland				
Tog'	1000 - 1200 2500 - 2800	Yassi, tekis suvayirg'ichli tezoqar soylarning tor vodiylari mavjud parchalang an yonbag'irli o'rtacha baland tog'lar	6-9	-	-	6-9	Chimli, qoramtir (jigar rang) tuproqlar	a) Quyi (kserofit siyrak o'rmonlar), quruq dash, har xil o'tlar orasidagi Zarafshon archasi formatsiyasi, b) Yuqori (mezofit siyrak o'rmolar va butazorlar), aralash butali formatsiya	Donli ekinlar, Go'sht jun va haydab boqiladigan qo'ychilik

3- jadval. Qashqadaryo viloyati tog' balandlik mintaqalarining tizimli tahliliy ko'rsatkichlari

Xulosa. Qashqadaryo viloyatining tog' balandlik mintaqalari murakkab va rang-barang tabiiy-geografik tizimlardan iborat bo'lib, u yer relyefi, iqlimi, tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosining balandlikka qarab izchil o'zgarib borishi bilan ajralib turadi. Viloyatning tog'li qismlari asosan Hisor tizmasi va uning tarmoqlariga (Chaqilkalon, Beshnov, Osmontarosh, Maydonak va boshqalar) to'g'ri keladi. Ushbu mintaqalarda tog'larning geomorfologik tuzilishi,

ekspozitsiyasi, namgarchilik va havo massasining ta'siri tufayli balandlik mintaqalanishi aniq va izchil ko'rinishda shakllangan. Tog' mintaqasida 1200–3000 m oralig'idagi balandliklarda turli zonal landshaftlar shakllangan: o'rtacha balandlikdagi tog'-dasht zonalari, yuqori balandliklardagi alp va subalp o'tloqlari, siyrak archazorlar, pastqam tog' yonbag'irlarida adir-o'simliklari, tuproqlarda esa to'q bo'z, qoramtir jigarrang, tog'-o'rmon va toshloq tuproqlar uchraydi. Iqlim salqin, yog'in nisbatan ko'p bo'lib, tuproq va o'simliklar shakllanishi uchun yetarli sharoit yaratgan. Ayniqsa, tog' yonbag'irlarining ekspozitsiyasi va shamol rejimi tabiat komponentlari tarqalishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mintaqadagi daryolar — Yakkabog'daryo, Qashqadaryo va ularning irmoqlari — asosan shu balandlik hududlarda shakllanadi va bu tog'li hudud viloyatning asosiy suv manbai sifatida ekologik va iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu yerlar kuchli eroziya xavfi ostida bo'lib, tuproq yuvilishi, daryolarni loyqalantirishi va unumdorlikni kamaytirishi mumkin. Ayniqsa, inson faoliyati (yaylovlardan haddan ziyod foydalanish, o'rmonlarning kesilishi) tufayli ba'zi zonalarda tabiiy muvozanat buzilgan. Qashqadaryo tog' balandlik mintaqalari o'zining tabiiy resurslari — yer, suv, o'simlik va hayvonot olami bilan qishloq xo'jaligi, chorvachilik, dorivor o'simliklar yetishtirish, dam olish va turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shuningdek, mintaqaning ekologik barqarorligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tog'li hududlarda meliorativ va o'rmonlashtirish tadbirlarini olib borish, eroziyaga qarshi kurashish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev S. I., Murtazayev B. Ch., Nazarov M. G. *The natural potential of the landscape // Life Sciences and Agriculture.* — №1. — B. 135–140.
2. Atlas O'zbekiston Respublikasi. 1-qism. — Moskva–Toshkent, 1982.
3. Бабушкин Л.Н. *Агроклиматическое районирование Средней Азии.* Труды ТашГУ, вып. 236. — Ташкент, 1964.
4. Гвоздецкий Н.А. *Проблемы физической географии. Тексты лекций.* — Москва: Изд-во МГУ, 1973.

5. Hasanov I.A. *O'zbekiston tabiiy geografik (ma'ruzalar matni)*. – Toshkent: O'zMU, 2002.
6. Hasanov I.X. *O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi*. – Toshkent: O'zMU, 2002.
7. Хасанов И.Х. *Оценка природных территориальных комплексов Каришинской степи для оросительной мелиорации*. – Ташкент, 1981.
8. P.A.Hasanov „Qashqadaryo viloyati landshaftining shakllanishida tabiiy komponentlar - tog' jinslari va relyefining o'rni” „Экономики и социум” №3(94) 2022.
9. Hikmatov F.X., Yunusov G'.X. va b. *Daryolar gidrologiyasi*. – Toshkent, 2017.
10. Кашкадарьинская область. Т.1. *Природа*. – Труды САГУ. – Ташкент, 1959.
11. Murtazayev B.Ch., Usmonov A., Safarov B. *Balandlik mintaqalarining tizimli tahlili (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati baland tog' landshaftlari misolida)* // *Ekonomika va sotsium*. – №11(113)-2, 2023.
12. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000.
13. O'zbekistonning tabiiy xaritasi. – Toshkent, 1996.
14. *ВОЗНИКНОВЕНИЕ ТЕОРИИ О ВЫСОТНЫХ ОБЛАСТЯХ И ЕЕ СВОЕОБРАЗНОЕ РАЗВИТИЕ* // *Экономика и социум*. – №11(90), 2021.